

**KOMPORATIV FRAZEOLIGIK BIRLIKLAR VA ULARNING
KLASSIFIKATSIYASI**

Asrayev Sadriddin G'ulom og'li

**O'zDJTU Roman-german filologiyasi fakulteti Nemis tili nazariy fanlar
kafedrası o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada komporativ frazeologik birliklar va ularning klassifikatsiyasi haqida gap boradi. Berilgan tipdagi so'zlarning turg'un birikmalarining struktura-semantik o'ziga xos xususiyati shundaki, komporativ frazeologik birliklar "wie" yoki "als" komporativ guruhi orqali ishlatiladi. Komporativ guruh yoki bo'ysunuvchi ergash so'z egani yoki harakatni tavsiflaydi; „er ist wie ein Stier“ iborasi "u buqaga o'xshaydi" holatni qiyoslash bilan "u kuchli, yovvoyi, buqadek xavfli" degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, ushbu maqolada komporativ frazeologik birliklar morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlari haqida gap boradi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сопоставительные фразеологизмы и их классификация. Структурно-семантической особенностью устойчивых сочетаний слов этой формы является то, что сравнительные фразеологизмы употребляются через сравнительную группу «wie» или «als». Сравнительная группа или придаточное предложение описывает обладателя или действие; Выражение «er ist wie ein Stier» означает «он сильный, дикий, опасный, как бык» по сравнению с «он похож на быка». Также в данной статье говорится о морфологических, синтаксических и лексических особенностях сравнительных фразеологизмов.

Abstract: This article deals with comparative phraseological units and their classification. A structural-semantic feature of fixed combinations of words of this form is that comparative phraseological units are used through the comparative group "wie" or "als". A comparative group or subordinate clause describes the possessor or action; The expression "er ist wie ein Stier" means "he is strong, wild, dangerous like a bull" in comparison to "he is like a bull". Also, this article is about morphological, syntactic and lexical features of comparative phraseological units.

Kirish: Frazeologizmlarni tilshunoslikning muhim sohalaridan biri frazeologiya o'rganadi. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o'tgan asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Frazeologiya E.D. Polivanov, V.V. Vinogradov kabi olimlarning ilmiy faoliyati bilan bog'liq va ushbu davr XX asrning 30-50-yillariga to'g'ri keladi. Yana bu davrni frazeologiyaning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanish davri ham deyish mumkin.

Frazeologik birliklar yillar, asrlar davomida har bir xalqning, har bir millatning, har bir hududning o'ziga xos madaniyati, urf-odatlarini, e'tiqod qiladigan dini va yashash tarziga qarab shakllangan. "Komparativ frazeologizmlar "biror bir narsani boshqa narsaga o'xshab (metaforadan farqli) turishidan tashkil topgan" deyish maqsadga muvofiqdir. Qiyoslanadigan obyekt va qiyoslash predmeti o'rtasidagi tarkib bilan bog'liq munosabatlar so'zning keng ma'nosidagi o'xshashlikka asoslanadi." [Hessky Regina: Phraseologie. Linguistische Grundfragen und kontrastives Modell deutschungarisch. Tübingen, 1987. S 195] Palm, shuningdek, komparativ frazeologizmlarning metaforalardan farq qilishini ta'kidlaydi. Komparativ frazeologizmlar "metaforadan farqli o'laroq, to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan qiyoslashning semantik munosabatini o'z ichiga oladi". [Palm, C. Phraseologie. Eine Einführung. 2. Auflage. Tübingen: Gunter Narr Verlag. 1997. – S 45]

Ushbu munosabatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: a)obyektiv tajribalarni aks ettirishda; *hart wie Stein - toshdek qattiq, leicht wie Spreu - paxtadek yengil, platt wie ein Brett - taxtadek tekis*. b)taxminiy obyektiv taassurotlarni ifodalashda; *stark wie ein Bär - ayiqdek baquvvat*, c)qarama-qarshi taassurotlarni kuchaytirishda; *treu wie eine Katze im Speisegewölbe - echkini bo'riga ishongandek*, d)subyektiv ravishda baholashda; *essen/ fressen wie eine neunköpfige Raupe – to'qqiz boshli ipak qurtidek yemoq*, ya'ni "moldek yemoq" iborasiga ko'proq mos keladi. e)baholashni giperbolik ravishda oshirib yuborish: *blau wie tausend Affen – mingta maymundek ko'm-ko'k*, ya'ni cho'chqadek ichgan.

Nemis tilida komporativ frazeologizmlarning bir nechta asosiy sintaktik tuzilmalarini ajratish mumkin. Ulardan eng muhimlari quyidagilar: Qiyoslashning **fe'l/sifat/ravish + ot** bog'lanishi: *falsch wie eine Katze, frieren wie ein Schneider, gucken wie ein Auto, aussehen wie eine gebadete Maus*. Qiyoslashning **fe'l/sifat/ravish + kesim** bog'lanishi: *sein wie verwandelt/umgewandelt/ausgewechselt* - o'zgargandek, ya'ni o'zini odatdagidan boshqacha tutmoq. **Fe'l/sifat/ravish + "wie" + gap** bog'lanishi: (kamdan kam uchraydi): *jmd. redet, wie er es versteht, jmd. ist so frech, wie er lang ist*. **Ot + "wie"** bog'lanishi: *ein Kerl wie ein Baum, ein Mensch wie du und ich, Zustände wie im alten Rom*

Semantik-pragmatik (amaliy) xususiyatlari: Komporativ iboralarning eng muhim semantik-pragmatik xususiyati komporativ predmet yordamida nimanidir aks ettirishdir. *singen wie eine Nachtigall* - bulbuldek xonish etmoq; *sich wie neugeboren fühlen* - o'zini onasidan qayta tug'ilgandek his qilmoq.

Qiyoslash hayvonlar, o'simliklar, obyektlar va holatlarning tipik xususiyatlari to'g'risida an'anaviy g'oyalar asosida amalga oshiriladi. Komporativ birlik kuchaytiruvchi, ekspressiv, aniqlovchi, farqlovchi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin: *(stark) wie ein Bär – ayiqdek (kuchli); dümmer als die Polizei erlaubt – politsiya ruxsat berganidan ham ahmoqroq, ya'ni juda ahmoq; antworten wie aus der Pistole geschossen* - avtomatdan o'q otganday gapirmoq; Shunday qilib, qiyoslash obykti va qiyoslash predmeti o'rtasida turli xil o'xshashliklar bo'lishi mumkin, masalan, *Fisch* so'zi bilan qiyoslanadigan frazemalar: [Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2010. – S. 47] *stumm wie ein Fisch – baliqdek saqov; kalt wie ein Fisch – baliqdek sovuq; sich wohlfühlen wie ein Fisch im Wasser* – o'zini suvdagi baliqdek yaxshi his qilmoq;

Komporativ frazeologik birliklarni o'rgana turib ularda ot so'z turkumlarining hayvon belgilariga ishora qilishini kuzatishimiz mumkin: *ot, cho'chqa, it, iblis, mushuk*. Bu hayvonlarning odamlar hayotida muhim o'rin tutishini yana bir bor tasdiqlaydi. Ular odamlarga o'tkaziladigan ba'zi xususiyatlarni o'zida mujassam

etgan. Muayyan hayvonga qaysi belgi berilishi, asosan, hayvonlarning tabiatdagi xatti-harakatlarini kuzatishlariga yoki bu mashhur mifologiya, ertaklar va adabiyotlarda mustahkamlanganligiga bog'liq ekanligini kuzatishimiz mumkin. Xulosa o'rnida aytish mumkinki hayvonlar bilan bog'liq komparativ frazeologizmlar qiyoslash uchun eng mashhur birliklardan desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki ulardan har xil ma'no va usuldan foydalangan holda ta'rif bera olish mumkin. Bu frazeologizmlarni aynan o'zbek tiliga ekvivalent asosida tarjima qilish birmuncha qiyinchilik tug'dirdi, o'zbek tiliga ekvivalent sifatida mos kelmaydiganlarini sinxron tarjima qilishga harakat qilindi, zero ikki til bir biriga unchalik ham mos tushmaydi: **Aqllilik:** *klug wie der Tag - kundek aqlli; klug wie eine Schlange - ilondek dono; reden wie ein Professor - professordek nutq so'zlamog;* **Ayyorlik:** *schlau wie ein (Oktober)Fuchs/Kuckuck - tulkidek ayyor (Tulkilar aqlli va mohir hayvonlar sifatida ko'plab ertaklar uchraydi.); schlau wie ein Dachs/klug wie der Teufel - ayyor kishi;* **Donolik:** *so weise wie Salomo(geh.) - Sulaymondek aqlli (Solomo - Bibliyada odil podshoh ramzi sifatida keltirilgan Sulaymon podsho);* **Hiyla-nayrang, epchillik:** *listig wie ein Fuchs; listig wie eine Amsel/Schlange;* har ikki gapda ham hiyla nayrang haqida gap ketyapdi va bizga ertaklardan tulki va ilonlar aql va hiylakor tariqasida ma'lum, ilon va tulki ayyor va hiylakor bo'lgani uchun ham ularga qiyoslanyapdi; **Ehtiyotkorlik:** *vorsichtig sein wie der Igel beider Vermehrung - juda ehtiyotkor bo'lmoq (tipratikondek);* **Qobiliyat:** *(für A) wie geschaffen sein - xuddi shu uchun yaratilgandek; von der Natur wie geschaffen sein (zu D, für A) - tabiatan shu narsa uchun yaratilgandek (ya'ni tug'ma qobiliyati bo'lmoq);* **Tushunish, zukkolik:** *(in D) schwimmen wie der Fisch im Wasser; -suvda baliqdek suza olish (ya'ni baliq suvda bemalol suza olganidek, hamma narsani tushuna olish);* **Bilimlar:** *Etwas wie seine (Hosen-, Westen) Tasche kennen - hech narsani ko'zdan qochirmaydigan (ya'ni o'z cho'ntagidagi narsani bilgandek boshqa narsalarni bilish);* **Yaxshi xotira:** *ein Gedächtnis wie ein (indischer)Elefant haben - fe'lni boshidek xotiraga ega bo'lmoq (aql fe'lning boshiga qiyoslanyapdi; "Insonning salbiy xususiyatlari" semantik sohalari shuni ko'rsatadiki, hayvon atamasi asosiy tarkibiy qism sifatida*

komparativ frazeologik birliklarda eng ko'p uchraydigan qiyoslash predmetidir. Ular insonlarga har xil ma'noda o'xshatilishi mumkin: **Qaysarlik:** *stur wie ein Esel; störrisch wie ein Maulesel; stur wie ein Panzer - eshakdek yoki xachirdek qaysar;* **Ayyorlik:** *glatt wie ein Aal – ilonbaliqdek silliq; sich winden wie eine Schlange – ilondek gaplashmoq; schlau wie ein Fuchs sein – tulkidek ayyor bo'lmoq;* **Ahmoqlik:** *gucken wie Pik Sieben – yettita belkurakdek; von etwas so viel verstehen wie die Kuh vom Sonntag - xuddi sigir yakshanba kuni bir nimani tushunib qolganidek;* **Ichkilikbozlik:** *besoffen wie ein Schwein - cho'chqadek ichmoq;* Dalillardan ko'rinib turibdiki, hayvonlar (*Schwein – cho'chqa, Kuh - sigir, Aal - ilonbaliq, Schlange - ilon, Fuchs - tulki, Esel – eshak*) tasvirlari yuqorida tilga olingan ikkala tilning komparativ frazeologizm sohalarining aksariyati hisoblanadi. Chunki hayvon frazeologizmi o'rganilayotgan tillar frazeologiyasining muhim va samarali qismidir. Hayvonot dunyosini eng keng va samarali frazeologik obrazli sohalaridan biri sifatida ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Burger H, Buhofer A, Sialm A. Handbuch der Phraseologie. Berlin/New York, 1982. – 433 S.
2. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2010. – 239 S.
3. Dobrovolskij, D. Phraseologie als Objekt der Universalienlinguistik, Verlag Enzyklopädie, 1988. – 214 S.
4. DUDEN – Das große Wörterbuch der deutschen Sprache. Bibliographisches Institut GmbH (Computerversion - 20.08.2019).
5. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig, VEB Bibliographisches Institut, 1982. – 250 S.
6. Palm, C. Phraseologie. Eine Einführung. 2. Auflage. Tübingen: Gunter Narr Verlag. 1997. – 130 S

7. Schade, W. Zu den komparativen Phraseologismen des Deutschen und Russischen. (Am Beispiel der Vergleiche mit wie bzw. kak). In: Aktuelle Probleme der Phraseologie. Leipzig, 1976. - 127–134 S.
8. Umarxo`jayev M. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. Andijon, 2010. – 150 b.